



OILA JAMIYATNING MUHIM BIR BO‘G‘INI

Dehqonova Iroda

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Anotatsiya: Oila jamiyatning quyi asosiy bo‘g‘inidir oila to‘liq bo‘lishi uchun ota-ona va farzandlar bo‘lishi shart. Buyuk rus psixologi A.N.Leontev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini o‘rganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot bo‘lmaganida, taraqqiyotning o‘zi ham mutloq bo‘lmas edi, deb takidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim bo‘lagi bo‘lmish oilaning roli kattadir

Oila - jamiyatning asosiy bo‘g‘ini muqaddas maskan. Mamlakat hayotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat – Bosh qomusimizda oilaga alohida urg‘u berib o‘tilgan. Konstitutsiyamizda oila jamiyatning bo‘g‘ini ekanligi va har bir oila davlat muhofazasida ekanligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tilgan. O‘zbek xalqi azaldan oilaga muqaddas qadriyat sifatida qaraydi. Jamiyatimizda oilaning roli shunchalik ahamiyatliki, u odatli tarzda har qanday jamiyatning asosi sifatida ko‘rib chiqiladi. Chunki oila ijtimoiy hayotning alohida sohasini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, kelajakda jamiyatda yashashni va davlatning fuqarosiga aylanishi kerak bo‘lib va shaxsning dunyoga kelishi, oyoqqa turishi va shakkillanish jarayonlari kechadi. Nikoh oilaning asosidir. Nikoh tuzilishi natijasida er-xotin o‘rtasida shaxsiy va mulkiy huquqlar vujudga keladi.

Amudaryo tumanida 2022 yil iyul oyida 102 ta nikoh qayd etildi. Shulardan 11 tasi joylarga chiqib sayyor ravishda qayd qilindi. Oila bolaning shaxs sifatida kamol topishida muhim poydevor hisoblanadi. Farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng kata boyligidir. Oila munosabatlarining konstitutsiyada aks ettirilishi oilaning yuksak ahloqiy ma’naviy normalari asosida mustahkamlanishining yarqin namunasi. Oiladagi tarbiya farzandlar ahloqiga,



xulqiga o`chmas qoidalarni singdiradi. Inson tarbiyasida hech qanday tuzulmalar oilaning o`rnini bosa olmaydi.

Mamlakatimizda oila tuzish asosi nikoh hisoblanadi. Nihoh oila tuzishning qonuniy sharti bo`lib u Konstitutsiyada belgilangan. Konstitutsiyaning 63-moddasida “Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi” dep belgilangan va ushbu qoida mazkur moddada o`z ifodasini topgan. Oilada sog`lom avlod vujudga kelishini taminlash maqsadida oila kodeksining 16-moddasida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar sifatida yaqin qarindoshlar o`rtasida nikoh taqiqlangan. Oila munosabatlarining hal qilinishi bosh qomusimiz Konstitutsiyamizda ham alohida bob bilan belgilanishi, davlatimiz tomonidanham oilaga bo`lgan munosabatning muqaddas tuyg`u sifatida qaralishining yana bir ifodasi desak yangilishmaymiz. Oilani mustahkamlash bu jamiyatni mustahkamla demak hamda rivojlantirish ekanligini shuningdek, davlatning oilaga bo`lgan munosabatini belgilaydi. Oila sog`lom bo`lsa jamiyat ham sog`lom bo`ladi.

Ota-bobolarimiz oilaga juda katta e`tibor bilan qarashgan. Buyuk allomalarimiz Mahmud Koshg`ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug`bek va boshqalargacha o`z asarlarida oilaviy masalalar, xususan, oila a`zolari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o`rni, komil va vatanparvar shaxsni yetishtirishda bu muhim ijtimoiy institutning roliga alohida yondashib, ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlarga maktublar, hikmatli so`zlar, she`riy satrlar orqali pand-nasihatlar, hayotiy xulosalar yozib qoldirganlar. Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho`lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma`rifatparvarlarimiz ham odob-axloqi go`zal, jismonan va ma`nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo`li — barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo`lmasligini ta`kidlashgan. Oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma`naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an`analarni saqlab qolish hamda targ`ibot qilish masalalari bo`yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir. Misol uchun, zamonaviy muvaffaqiyatli oila mezonlari qanday bo`lishi kerak, degan mavzuda respublikamizning turli



viloyatlarida 800 dan ortiq oilalarda ijtimoiy soʻrovlar oʻtkazilib, yakuniy natijalar boʻyicha zamonaviy oilaning modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot oʻtkazilgan oilalar vakillarining fikrlariga koʻra, oiladagi sogʻlom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak maʼnaviy-axloqiy tarbiya; yetarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila aʼzolarining taʼlim yoʻnalishida oliy maʼlumotlilik darajasi; sihat-salomatlikka alohida eʼtibor qaratish zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi.

Psixologik omil — oiladagi ogʻir psixologik muhit, oʻzaro tushunishning yoʻqligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qoʻyish, bir-biriga befarqlik;

Ijtimoiy omil — ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi;

Maʼnaviy-axloqiy omil — er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari;

Iqtisodiy omil — turarjoy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, erning oilani taʼminlamasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani, qarzlarni uzolmaslik.

2020-yil 5-oktyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezident tomonidan OʻRQ–640-sonli “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun imzolandi.

Qonun bilan 8 ta kodeks va 10 ta qonunga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritildi. Oila kodeksiga kiritilgan qoʻshimchalarga koʻra, 4 nafar va undan ortiq 18 yoshga toʻlmagan bolasi boʻlgan oila koʻp bolali oila hisoblanadi.

- Bunda, agar 4 nafar va undan ortiq bolalaridan 1 nafari yoki undan koʻprogʻi taʼlimning kunduzgi shaklida (oʻrta maxsus va kasb-hunar, oliy taʼlim) taʼlim tashkilotlarida oʻqiyotgan hamda 22 yoshga toʻlmagan boʻlsa, bu oila ham koʻp bolali oila deb hisoblanadi.

Qonun bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga kiritilgan qoʻshimchaga koʻra, tazyiq oʻtkazgan va (yoki) zoʻravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil boʻlgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaganlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilandi.



- Bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan 223 ming soʻmdan 669 ming soʻmgacha miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha maʼmuriy qamoqqa olish jazosi qoʻllaniladi. Qonun bilan “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Qonunga kiritilgan qoʻshimchaga koʻra, daʼvogarlar tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga yetkazilgan maʼnaviy va moddiy zararining oʻrnini qoplash toʻgʻrisidagi daʼvolar yuzasidan davlat bojidan ozod qilinadi. Qonun rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi, deb xabar beradi Adliya vazirligi matbuot xizmati.

Xalqaro oilalar kuni har yili 15-may kuni nishonlanadi . Ushbu kun BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1993-yilda A/RES/47/237 rezolyutsiyasi bilan eʼlon qilingan va xalqaro hamjamiyatning oilalarga berayotgan ahamiyatini aks ettiradi. Xalqaro kun oilalar bilan bogʻliq muammolardan xabardorlikni oshirish va oilalarga taʼsir qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va demografik jarayonlar haqidagi bilimlarni oshirish imkonini beradi. Har yili 15-mayda oilalardagi muammolarni odamlar, jamiyatlar va hukumatlar hal qilishi uchun qanday choralar koʻrilishi kerakligiga oid xabarlar eʼlon qilinadi. Shuningdek, bu kun mustahkam oilaviy birlik jamiyat va millatlarni mustahkamlashga qanday yordam berishini namoyish qilish kuni ham hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyun kuni “Oʻzbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ-3808-son qaroriga koʻra, 15 may "Xalqaro oila kuni" sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Inson hayoti oiladan boshlanadi. Bu yerda u shaxs sifatida shakllanadi. Oila - bu sevgi, mehr-muhabbat hurmat va hamjihatlik manbai asosida yetuk jamiyatni barpo etadi. Oilaning farovonligi mamlakat rivojining oʻlchovi sifatida baholanadi.

Oila jamiyatning alohida asosiy boʻgʻini sifatida unda insoniylik, madaniy va maʼnaviy qadriyatlar, milliy mentalitet, etnik urf odatlar, avlodlarning oʻzaro azaliy



bog'liqligi va tarixiy chambarchasligi, barqarorlik hamda rivojlanish omili bo'lib tan olingan. Oilaning muqaddas hisoblanishida davlat tobora mustahkamlanib, rivojlanadi va xalqning turmush farovonligi ijobiy tomonlama ortib bormoqda. Har doim mamlakatning rivojlanishi, oilaning jamiyat va davlat oldidagi mavqeiga qarab belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Markaziy Osiyoda XII-asr oxiri XIV-asr boshlarida pedagogik fikrlar rivoji. "Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna.
2. Academia.edu
3. O'rta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. M. Xayrullayev va b. tax Ost. Toshkent, "FAN" 1997
4. Hoshimov K. va b. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi 2-qism. T: "O'qituvchi". 1996
5. Hoshimov K va b Pedagogika tarixi T: "O'qituvchi" 1996
6. Karimov I.A Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi Toshkent, "Ma'naviyat", 2006.